

---

## Rishton tumani hokimi o'rinbosarlari 1-sektor hududdagi mahalla faollari bilan uchrashishdi

????Rishton tumani hokimi o'rinbosarlari sektordagi mahalla beshligi bilan aholining turli sohalardagi muammolarini o'rganish maqsadida 1-sektor ishchi guruxi hamda mahalla beshligiga topshiriqlar berdi.

????Xususan, sektorga qarashli "A. Navoiy", "Abdullabayon", "Yangi yo'l" (mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori) bilan suhbatlashib, umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va boshqa ijtimoiy soha ob'ektlaridagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan chora tadbirlarini yo'l xaritalarini ishlab chiqishni vazifa qilib berdi.

????Shu o'rinda ushbu mahallalarda yashovchi keksa nuroniylar bilan sayyor qabul o'tkazilib, ularning kommunal, yo'l va boshqa muhim muammolari bilan yaqindan tanishdi, hamda muammolar yuzasidan mas'ullarga aniq vazifalar belgilab berildi.

2022-09-09 15:52:02